



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 31-iyul, № 155 (9326)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON MUNOSABATLARI ITTIFOQCHILIK DARAJASIGA KO'TARILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-iyul kuni rafiqasi bilan birga davlat tashrifi bilan Qirg'izistonga keldi.



Cho'lponota shahridagi "Issiqko'l" xalqaro aeroportida ularni Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va uning rafiqasi kutib oldi.

Oliy martabali mehmonlar sharafiga ikki davlat bayroqlari ko'tarilib, faxriy qorovul saf tortdi.

Shundan so'ng Cho'lponota shahridagi Chingiz Aytmatov nomidagi "Ruh Ordo" madaniyat markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston va Qirg'iziston davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Sadir Japarov faxriy qorovul safi oldidan

o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini bir-birlariga tanishtirdilar.

"Ruh Ordo" madaniyat markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan tor doiradagi va rasmiy delegatsiyalar a'zolari ishtirokidagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston – Qirg'iziston har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari atroflicha muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda O'zbekiston – Qirg'iziston munosabatlari har qachongidan ham yuksak darajaga ko'tarilganini alohida ta'kidladi.

So'nggi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 10 barobar oshib, o'tgan yil yakuni bilan 1,2 milliard dollarga yetdi. 450 ta qo'shma korxona tashkil etildi, kooperatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Taraqqiyot fondi samarali faoliyat yuritmoqda.

Shaharlar o'rtasida 15 ta aviaqatnov, 5 ta avtobus yo'nalishi yo'lga qo'yilgan.

Bu galgi tashrif arafasida Hukumatlararo komissiya, Ishbilarmonlar kengashi yig'ilishlari, biznes-forum, rektorlar va tahliil markazlar vakillarining uchrashuvlari, O'zbekiston madaniyati kunlari hamda qator boshqa tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Muzokaralar davomida tomonlar parlamentlar, hukumatlar, vazirlik, idora va

hududlar, ishbiarmon doiralar va ekspertlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirishga kelishib oldilar. Davlatlararo kengash tuzishga qaror qilindi.

Xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, jumladan, BMT, SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, Markaziy Osiyo va O'zbekiston davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi hamda boshqa ko'p tomonlama platformalar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirish zarurligi ta'kidlandi.

O'zaro savdo hajmini 3 milliard dollarga yetkazish vazifasidan kelib chiqib, yaqin fursatda import o'rnini faol bosish asosida o'zaro mahsulot yetkazib berish hajmlarini oshirish choralari ko'riladi. Shuningdek, ikki davlat poytaxtlarida savdo uylari va vakolatxonalari ochiladi.

Ustuvor yo'nalishlarda sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bunda energetika, geologiya, muhim minerallar, logistika, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, to'qimachilik va boshqa sohalarida qo'shma loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Kuni kecha bo'lib o'tgan biznes forumi doirasida yangi savdo shartnomalari va investitsiya kelishuvlarining to'plami qabul qilindi.

Energetika sohasidagi hamkorlik strategik yo'nalish sifatida belgilandi.

"Qambarota GES-1" qurilishi loyihasi bo'yicha bitimni imkon qadar tezroq imzolab, uni amaliy bosqichga o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lini qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan yirik loyiha joriy holati yuzasidan fikr almashildi.

Transport sohasida o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash maqsadida mazkur temir yo'l bo'yab chegaraldi va savdo-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, ruxsat berish tartib-taomillarini raqamlashtirish, avtotashuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratishga kelishib olindi.

Ikki mamlakat hududlari savdo-iqtisodiy hamkorlikning "o'sish nuqtalari" ekani ta'kidlandi.

Bu borada joriy yil yakuniga qadar barcha viloyatlar ishtirokida birinchi Hududlar forumi o'tkazilishi hamda ularning o'zaro tashriflari jadvali tasdiqlanishi belgilab olindi.

Madaniyat, yoshlar, turizm, ta'lim, ilm-fan va sport sohalaridagi faol almashinuvlar davom ettiriladi.

Muzokaralar davomida Bosh vazir o'rinbosarlarining savdo-iqtisodiy kun tartibi bo'yicha aniq takliflarni o'z ichiga olgan axborotlari tinglandi.

Yakunda Shavkat Mirziyoyev Sadir Japarovni o'zi uchun qulay vaqtida O'zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

Shuningdek, davlat rahbarlari huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo'ldi. Shu jumladan:

– O'zbekiston – Qirg'iziston davlat chegarasining uchastkalari to'g'risida shartnoma;

– "Chashma" bulog'idan birgalikda foydalanish to'g'risida bitim;

– Davlat ijtimoiy sug'urtasi va pensiya ta'minoti to'g'risida bitim;

– Oliy ta'lim sohasidagi kreditlarni o'zaro tan olish to'g'risida bitim;

– Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari to'g'risidagi hukumatlararo bitimga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida bayonnomma;

– Fuqarolarning o'zaro kelib-ketishlari to'g'risidagi hukumatlararo bitimga bayonnomma;

– Qirg'iz Respublikasining Issiqko'l viloyati hududida joylashgan kurort-rekreasiya xo'jaligi obyektlari to'g'risidagi bitimga bayonnomma;

– 2026-2027-yillarga mo'ljallangan madaniyat sohasidagi tadbirlar rejasi;

– 2026-2027-yillarga mo'ljallangan turizm sohasidagi qo'shma harakatlar rejasi;

– Qirg'iz Respublikasi Issiqko'l viloyati Ton tumanida joylashgan "Bo'ston" pansionati to'g'risida shartnoma;

– 2026-2027-yillarga mo'ljallangan agrosanoat majmuasi sohasidagi amaliy chora-tadbirlar rejasi.

So'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni I darajali "Manas" ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Qirg'iz Respublikasining yuksak mukofotini davlatimiz rahbariga Prezident Sadir Japarov topshirdi.

O'zbekiston yetakchisi qardosh Qirg'iziston Prezidenti va xalqiga chuqur minnatdorlik bildirib, ushbu mukofotni ikki xalq o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlash borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlar hamda O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlarini yangi tarixiy bosqich – ittifoqchilik darajasiga olib chiqishga qaratilgan mustarak intilishlarning yuksak e'tirofi sifatida qabul qilishini ta'kidladi.

1996-yilda ta'sis etilgan "Manas" ordeni Qirg'iz Respublikasining oliy davlat mukofotlaridan biri hisoblanadi. Respublika va xorij fuqarolariga davlatchilik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik va o'zaro anglashuv rishtalarini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hisssasi uchun beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlari bo'yicha ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Shukuh

UMUMMILLIY BIRDAMLIK — ENG KATTA BOYLIK

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida 30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan tashkil etilgan "Do'stlik" festivali doirasida "Umummilliy birdamlik – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi!" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Unda diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar xodimlari, xorijlik olim va ekspertlar, davlat idoralari, parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, milliy madaniy markazlar, do'stlik jamiyatlari, xorijdagi vatandoshlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabirini Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov o'qib eshittirdi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, ushbu quvonchli bayramda ko'p millatli xalqimizning oliyjanob intilishlari, amaliy harakatlari bilan jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, millatlar va dinlararo do'stlik, bag'rikenglik hamda

hamjihatlik bizning eng bebaho boyligimiz ekanini yanada chuqur his etamiz. Keyingi yillarda "Bizning kuchimiz – birlik va hamjihatlikda" degan ezu g'oya asosida yurtimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikning o'ziga xos ibratli modeli yaratilgani bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Hozirgi vaqtda millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamiga tobora kengayib, sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu borada qabul qilingan 10 ta normativ-huquqiy hujjat, jumladan, Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi ayni yo'nalishdagi ishlar samarasini oshirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.



ODAM SAVDOSI — TENGLIK VA TINCHLIK YO'LIDAGI TO'SIQ

Yangi O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurashish inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va munosib mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda odam savdosi faqat jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi emas, balki inson huquqlari, mehnat munosabatlari, migratsiya, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy himoya bilan uzviy bog'liq murakkab global tahdiddir.

Xalqaro anjuman

Oliy Majlis Senatida 30-iyul – Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuniga bag'ishlangan "O'zgarib borayotgan dunyoda odam

savdosiga qarshi kurashish: profilaktika, himoya va hamkorlik" mavzuida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya ayni shu masalaga bag'ishlandi.

Aytish mumkin, konferensiya ushbu sohada erishilgan natijalarni tahlil qilish, global tahdidlar muhokamasi hamda milliy va mintaqaviy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan xalqaro muloqot maydoniga aylandi. Odam savdosining zamonaviy tahdidlari, xususan, raqamli texnologiyalar, onlayn yollash platformalari, firibgarlik sxemalari hamda transmilliy jinoiy tarmoqlar faoliyati tufayli yuzaga kelayotgan yangi xavflarga



Deputatlar — hududlarda USTUVOR VAZIFALAR VA EZGU TASHABBUSLAR IJROSI

Avval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'z saylov okruglaridagi mahallalar, xonadonlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarda bo'lib, aholi bilan ochiq va samarali muloqotlar o'tkazmoqda. Uchrashuvlar davomida davlatimiz rahbari tomonidan yarim yillik natijalari va yil yakuniga qadar belgilangan vazifalar, energetika sohasini isloh qilishga qaratilgan tashabbuslar, shuningdek, "mahalla yetiligi" faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish borasida berilgan topshiriqlar ijrosini samarali ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Islohotlar mazmun-mohiyati saylovchilarga yetkazildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Tohir Polvonov Xazorasp tumanida bo'lib, aholi bilan ochiq muloqotlar o'tkazdi.

Tumanning Al-Xorazmiy va Bo'ston mahallalaridagi uchrashuvlarda Prezidentimiz raisligida hudud

va tarmoqlarda o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar va yil yakunigacha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ilgari surilgan tashabbuslarning mazmun-mohiyati saylovchilarga yetkazildi.



Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga

YANGI HAYOT VA YORUG' KELAJAK RAMZI

Nurafshon Yangi O'zbekiston taraqqiyotining qudratli tayanchlaridan biriga aylanmoqda



Keyingi o'n yillik mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalar, qo'yingki, hayotimizning barcha jabhalarida rivojlanish silsilasining yangi bosqichini boshlab berdi. Tarixan juda qisqa ushbu davrda Nurafshon, Bobur, Yangi Toshkent kabi zamonaviy shaharlarga asos solinib, bu kentlar inson uchun har tarafлама qulay bo'lgan zamonaviy megapolislarga aylantirilmoqda. Ayniqsa, Toshkent viloyatining ma'muriy markazi – Nurafshon haqida gap ketganda, u o'zining yarim asrdan ziyod tarixi mobaynida keyingi yillardagidek o'zgarish, yangilanish va ulkan bunyodkorlikning guvohi bo'lgan emas.

Darhaqiqat, bugun ko'z o'ngimizda qad rostlayotgan Nurafshon shahri misolida yurtimizda amalga oshirilayotgan buyuk bunyodkorlikka guvoh bo'lmoqdamiz. Mamlakatimizning mustahkam iqtisodiy tayanchlaridan biri bo'lgan Toshkent viloyatining qiyofasi yil yoki oy sayin emas, kun va soat sayin yangilanyapti. Hududda yashovchi ko'p millatli, mard va mehnatsevar, ko'ngli tog' qadar yuksak aholi esa har daqiqada uyg'onish nafasi va yangilanish zavqini his qilmoqda. Shubhasiz, bu davlatimiz rahbari tashabbusi bilan inson qadrlini ulug'lash, hududlarni obod etish bo'yicha ortga qaytmas islohotlarning mevasidir.



O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON MUNOSABATLARI ITTIFOQCHILIK DARAJASIGA KO'TARILDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mamlakatimiz yetakchisi Qirg'izistonga bu galgi davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston – Qirg'iziston ko'p qirrali hamkorligida yangi sahifani ochganini ta'kidladi.

Ushbu sammitga birgalikda katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilgani qayd etildi. Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, biznes-forum, rektorlar va tahliliy markazlar vakillarining uchrashuvlari muvaffaqiyatli o'tkazildi. Ayni paytda Qirg'izistonda O'zbekiston madaniyati kunlari doirasida turli tadbirlar o'tmoqda.

Fursatdan foydalanib, Prezidentimiz qardosh Qirg'izistonni 2027-2028-yillarda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy bo'lmagan a'zosi etib saylangani munosabati bilan samimiy tabrikadi. Bu mamlakat va butun Markaziy Osiyoning nufuzi yuksalayotganining e'tirofidir.

Bugungi muzokaralar har doimgidek ochiq, konstruktiv va do'stona ruhda

o'tgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarning barcha jabhalarini atroflicha muhokama qildilar. Bosh vazir o'rinbosarlarining savdo-iqtisodiy sohadagi aniq rejalarni o'z ichiga olgan axborotlarini tingladilar.

Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi sammitning eng muhim natijasi bo'ldi.

Ushbu hujjat ikki tomonlama sheriklikni davlatlararo aloqalarning eng yuqori darajasiga olib chiqadi.

– Endi bizning asosiy vazifamiz – hamkorligimizni mamlakatlarimiz va xalqlarimiz taraqqiyoti hamda farovonligiga xizmat qiladigan yangi mazmun, loyiha va tashabbuslar bilan boyitish, – dedi davlatimiz rahbari.

Ikki davlat Prezidentlari raisligida Davlatlararo kengashni tuzish bo'yicha kelishuvga erishildi. Bu ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash va hamkorlikning uzoq muddatli ustuvor

yo'nalishlarini belgilashning asosiy mexanizmi bo'ladi.

Shu bilan birga, tomonlar bundan buyon ham siyosiy muloqotni rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro maydonlarda bir-birini qo'llab-quvvatlash va pozitsiyalarni yaqindan muvofiqlashtirishga tayyor ekanligini tasdiqladilar.

Yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 10 barobar oshib, o'tgan yil yakuni bilan 1,2 milliard dollardan ziyodni tashkil qildi. Jadal o'sish sur'atlari saqlanib qolayotganini inobatga olib, ushbu ko'rsatkichni 3 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Yetakchilar sanoat kooperatsiyasining yangi "o'sish nuqtalari"ni, eng avvalo, ikki mamlakat iqtisodiyotlari bir-birini to'ldiruvchi sohalarda yaratishga alohida e'talib dildilar.

Bu borada kuni kecha bo'lib o'tgan biznes forumi doirasida energetika, elektrotexnika, farmatsevtika, qishloq

xo'jaligi va to'qimachilik sohalarida yangi loyihalar kelishildi. Shuningdek, xomashyo resurslarini birgalikda qazib olish bo'yicha aniq rejalarni belgilandi.

Bunday loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shma Taraqqiyot fondi salohiyatidan samarali foydalaniladi.

Ikki mamlakatning transport sohasidagi o'zaro bog'liqligi va tranzit salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li qurilishi bo'yicha strategik loyihani amalga oshirish ishlari jadal davom etayotgani qayd etildi.

Mazkur temir yo'li bo'yab savdo-logistika infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish, savdo va transport jarayonlariga raqamli yechimlarni faol joriy etish, avtotashuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratishga kelishib olindi.

Suv-energetika sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida e'talib o'tildi.

Transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasida konstruktiv

hamkorlikni davom ettirishga tayyorlik tasdiqlandi. "Qambarota GES-1"ni qurish to'g'risidagi bitimni imzolash jarayoni tezlashtirildi.

Ikki mamlakat hududlarining salohiyatidan faol foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Yil yakuniga qadar O'zbekistonda yangi formatdagi birinchi Hududlar forumi o'tkaziladi.

Madaniyat, ta'lim, ilm-fan, yoshlar siyosati va turizm sohalarida faol almashinuvlarni davom ettirishga tayyorlik tasdiqlandi.

Yetakchilar Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash masalalarini ham atroflicha muhokama qildilar.

Yakunda Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu sammitda erishilgan kelishuvlar qardosh xalqlar o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Cho'lponota shahriga tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlari bilan birgalikda Qirg'izistondagi ilk xalqaro toifadagi golf klubining tanalanli ochilish marosimida ishtirok etdi.

Yetakchilar bu yerda barpo etilgan zamonaviy sport va turizm infratuzilmasi bilan tanishdilar. Yangi majmua golfni ommalashtirish, sport turizmini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari qardosh Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va xalqini yangi obyektning ochilishi bilan tabriklab, mamlakatning turizm salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatlar tiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iz Respublikasiga davlat tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

ODAM SAVDOSI – TENGLIK VA TINCHLIK YO'LIDAGI TO'SIQ



Joriy yilda Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni "Firibgarlik tuzog'ida qolganlar" global mavzuiga bag'ishlandi va uning doirasida raqamli makonda ekspluatatsiyaning oldini olish, profilaktika choralarni kuchaytirish va xavflarni barvaqt bartaraf etish masalalariga ham urg'u berildi.

– Odam savdosiga qarshi kurashdagi eng katta yutuq – jabrlanganlarni qutqarish bilan birga yangi jabrlanuvchilarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikdir, – dedi Oliy Majlis Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari

bo'yicha milliy komissiya raisi Tanzila Norboyeva.

Haqiqatan ham, hamma zamonda illatning o'zi bilan birga uning asl manbaiga qarshi keskin kurash samarali usul hisoblangan. Shu nuqtayi nazardan, odam savdosi singari jinoyi qilmishga qarshi profilaktik yondashuvlarni kuchaytirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, munosib mehnat va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish uning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro migratsiya tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Endryu Greyning fikricha, odam savdosi

har qachongidan ham tezroq tuslanmoqda. Jinoyi tarmoqlar raqamli texnologiyalardan faol foydalanyapti, ularning transmilliy xususiyati va murakkabligi ortib borayotir. Shu bois javob choralari ham nafaqat tergov va jabrlanuvchilarni himoya qilish, balki ekspluatatsiya sodir bo'lishidan avval uning oldini olishga qaratilgan tizimli yondashuvlarni qamrab olishi lozim.

Uchta tematik sessiya doirasida raqamli tahdidlar va ekspluatatsiya yangi shakllarining oldini olish, odam savdosidan jabrlanganlarni erta aniqlash, identifikatsiyalash va himoya mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, jabrlanganlarni reabilitatsiya qilish, qayta yo'naltirish hamda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Ta'kidlanganidek, odam savdosiga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qilish yoki jinoyi ta'qib bilan cheklanmasdan, profilaktika, ijtimoiy himoya, mehnat, migratsiya, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida muvofiqlashtirilgan davlat siyosatiga tayanishi lozim.

Anjumanda ishtirok etgan Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari odam savdosidan jabrlanganlar va xavf

guruhiga kiruvchi muhojirlarni himoya qilish, ularga yordam ko'rsatish hamda transchegaraviy hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy hamkorlikni izchil davom ettirishga tayyor ekanini ta'kidladi.

Shuningdek, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, xalqaro tashkilotlar va rivojlanish bo'yicha hamkorlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlari odam savdosining oldini olish hamda jabrlanganlarni himoya qilishning eng muhim sharti ekani e'tirof etildi.

Mintaqa davlatlari o'rtasida jabrlanganlarni transchegaraviy yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish, vakolatli organlar o'rtasida tezkor axborot almashuvini kuchaytirish, mutaxassislar uchun qo'shma o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish hamda parlamentlararo muloqotni tizimli rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

Anjumana yakunida odam savdosining oldini olish hamda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi komyunike qabul qilindi.

Hamroql QARSHIYEV
("Xalq so'zi").

PARLAMENT FAOLİYATI – YOSHLAR NIGOHIDA

Oliy Majlis Senatida "Ixlos" nogironligi bo'lgan talabalar uyushmasi a'zolari, "Oltin qanot" hamda Yosh volontyorlar akademiyasi a'zolari bilan uchrashuv tashkil etildi.



Uchrashuv

Unda asosiy e'tibor yoshlarni parlament faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ularning huquqiy bilimlarini oshirish, qonun ijodkorligi jarayoni haqidagi tasavvurlarini kengaytirish hamda davlat

boshqaruvdagi ishtirokini rag'batlantirishga qaratildi.

Uchrashuvda Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Odiljon Mamatkariyov, yuqori palataning konstitutsiyaviy vakolatlari, qonunlarni ko'rib chiqish hamda ma'qullash jarayoni, qo'mitalar faoliyati va parlament

nazoratining asosiy yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

Shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, navqiron avlodning bilim olishi, kasb egallashi, o'z salohiyatini namoyon etishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari haqida so'z yuritildi.

Muloqot davomida oliy ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi islohotlar, ta'lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash bo'yicha amaldagi qonunchilikda belgilangan imtiyoz va imkoniyatlar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berildi.

Volontyorlar ta'lim, yoshlar siyosati, ijtimoiy himoya va parlament faoliyatiga oid o'zlarini qiziqitirgan savollarga mutaxassislardan batafsil javob oldi, shuningdek, o'zlarining qator taklif hamda fikr-mulohazalarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI TEXNOLOGIYALAR, INNOVATSIYALAR VA INSON KAPITALINI BIRGALIKDA RIVOJLANTIRISHGA INTILMOQDA

Anqara inqirozlar va siyosat tadqiqotlari markazi (ANKASAM) rahbari, professor Mehmet Seyfettin Erol "Dunyo" Aaga O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 29-iyul kuni Qozog'istonga amaliy tashrifi yekunlari hamda Ostonada bo'lib o'tayotgan "Kelajak o'yinlari" uchinchi xalqaro musobaqasining tantanali ochilish marosimidagi ishtiroki yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi:

Aks sado

– O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ostonaga tashrifi Markaziy Osiyo xalqaro kun tartibini bosqichma-bosqich kengaytirayotgan davrga to'g'ri keldi. Agar yaqin-yaqingacha mintaga, birinchi navbatda, energetika, logistika va xavfsizlik masalalari bilan bog'lanib kelgan bo'lsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalar,

innovatsiyalar, ta'lim va yoshlar tashabbuslariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan uchunchi "Kelajak o'yinlari"ning o'tkazilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ochilish marosimida Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlari qatnashdi. Rossiya Prezidenti Vladimir Putin ishtirokchilarga videomurojaat yo'lladi. Bunday yuqori darajadagi ishtirok "Kelajak o'yinlari"ning sport, texnologiyalar

va gumanitar hamkorlik masalalarini birlashtirishga qodir xalqaro platforma sifatida qaralayotganidan dalolat beradi.

Musobaqa formati zamonaviy tendensiyalarni aks ettiradi. "Phygital" klassik sport turlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, yosh avlod uchun yangi musobaqa modelini yaratmoqda. Bunday yondashuv nafaqat sportni rivojlantirish, balki raqamli iqtisodiyotda talab yuqori bo'lgan yangi kompetensiyalarni shakllantirish haqida ham so'z yuritish imkonini beradi.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning ochilish marosimidagi ishtiroki O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakat raqamlashtirish, IT-industriyasini rivojlantirish, sun'iy intellekt sohasi va yosh mutaxassislarni tayyorlashga faol sarmoya kiritmoqda. Shu ma'noda, "Kelajak o'yinlari"ga qiziqish mamlakatda amalga oshirilayotgan ichki o'zgarishlarga to'la mos keladi.

O'zbekiston vakillari mazkur turnirda fital-futbol, lazertag va raqs yo'nalishlarida ishtirok etmoqda. Bu mamlakatning raqamli texnologiyalar va jismoniy tayyorgarlik uyg'unlashgan sportning yangi yo'nalishlarida munosib o'rin egallashiga intilayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Prezidenti 2024-yilda Qozon shahrida bo'lib o'tgan birinchi "Kelajak o'yinlari"ning ochilish marosimida ishtirok etgan edi, endi esa Ostonadagi turnirning ochilishida ham qatnashdi. Bunday yondashuv ushbu loyihaga uzoq muddatli xalqaro tashabbus sifatida qaralayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda aynan shunday loyihalar mintaqaviy hamkorlikning yangi vositasiga aylanib bormoqda. Markaziy Osiyo nafaqat iqtisodiy hamkorlikka, balki texnologiyalar, innovatsiyalar va inson kapitalini birgalikda rivojlantirishga asoslangan o'z kun tartibini bosqichma-bosqich shakllantirmoqda.

"Dunyo" AA.
Anqara

O'zbekistonning "Arda Xiva" turistik majmuasi va Qozog'istonning "FlyArystan" aviakompaniyasi hamkorligida Olmaota – Urganch – Olmaota yo'nalishida yangi aviaqatnov ochilmoqda.

USTUVOR VAZIFALAR VA EZGU TASHABBUSLAR IJROSI



Mamlakatimizda iqtisodiy yuksalish bo'yicha bugungidek ulkan yutuqlarga hamda natijalarga o'z-o'zidan erishilmayotgani, buning zahirida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan qat'iy va oqilona siyosat hamda izchil islohotlar turgani alohida ta'kidlanadi.

Xalq vakili mazkur mahallalar aholisi tomonidan ko'tarilgan murojaatlarga ham e'tibor qaratdi. Xususan, Al-Xorazmiy nomidagi mahallada elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar bilan bog'liq muammo mas'uliyatini tashkilotlash joyiga chiqqan holda o'rganilib, uni bartaraf etishga qaratilgan amaliy choralar belgilandi. Energetika resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Bo'ston mahallasida esa fuqarolar bildirgan taklif va murojaatlarni tegishli tartibda ko'rib chiqish, aniqlangan masalalarga yechim topish yuzasidan mas'ullar ishtirokida zaruriy choralar ko'ridi. Ularning ijrosini ta'minlash deputatlik nazoratiga olindi.

Tohir POLVONOV, deputat:



– Yarim yillik natijalari muhokamasida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar mazmun-mohiyatini saylovchilarga yetkazdik. Albatta, barcha sohalaridagi ulkan yutuqlar zahirida qat'iy va oqilona siyosat, izchil islohotlar turibdi. Yil yakuniga qadar belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta'minlashda biz, deputatlar ham faol bo'lamiz. Har bir hududda muloqotlar ko'lamini yanada kengaytiramiz. Mahalliy hokimiyat vakillari bilan birgalikda har bir murojaat va masala yechimiga alohida e'tibor qaratamiz.

Energiya tejamlorligi – bugunning muhim talabi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Ravshan Mamutov Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanida bo'lib, energetika sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, infratuzilma loyihalari hamda aholini o'ylantirayotgan masalalarni joyida o'rgandi.

Deputat Beruniy tumani elektr tarmoqlari korxonasida bo'lib, Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosi bilan tanishdi. Korxona rahbari Mansur O'razaliyevning ma'lum qilishicha, bugungi kunda tuman iste'molchilariga bir sutkada 26 megavatt elektr energiyasi yetkazib berilmoqda. Uning qariyb 20 megavatt qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan, quyosh elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa mamlakatimizda "yashil" energetikani rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning hududlardagi amaliy ifodasidir.

O'rganishlar davomida tarmoqda mavjud ayrim muammolar ham atroflicha muhokama qilindi. Xususan, Bunyodkor mahallasida elektr ta'minoti barqarorligini yanada oshirish uchun qo'shimcha 25 megavatt quvvatga ega elektr uzatish qurilmasini o'rnatish zarurligi qayd etildi. Deputat mazkur masalani chuqur o'rganib, tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda unga yechim topilishini ma'lum qildi.

Ravshan MAMUTOV, deputat:

– Uzuksiz va barqaror energiya ta'minoti uchun, eng avvalo, samarali boshqaruv tizimi kerak. Bu borada Prezidentimiz juda to'g'ri yechimlarni belgilab berdi. Uchrashuvlarda mana shu vazifalarni fidoiylilik bilan amalga oshirish choralari hamkorlikda belgilab oldik. Sohadagi eng muhim muammolardan biri, hech shubhasiz, tejamlorlik. Saylovchilarimiz o'tasida bu mavzuda keng targ'ibot ishlarini olib boryapmiz. Ularning takliflarini tinglaymiz. Soha o'ld qonunchilikni takomillashtirish uchun bu tavsiyalarni, albatta, inobatga olamiz.



Tadbirkorlik va bandlik masalalari xalq vakili e'tiborida

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Baxitbay Aldamuratovning Nukus shahridagi saylovchilar bilan uchrashuvlari davom etmoqda. Deputat "Vatanparvar", "Bayterek" va "Samanbay" mahalla fuqarolar yig'inlarida bo'lib, aholi bilan xonadonlarda, mehnat maskanlarida yuzma-yuz muloqot qildi.

Joylarda yaratilgan sharoitlar, "mahalla yetilligi" faoliyati, hududlarning obodligi hamda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishar ekan, deputat har bir manzilda odamlarning kayfiyati, turmushi va ularni o'ylantirayotgan masalalar bilan qiziqdi. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, xotin-qizlar bandligini ta'minlab kelayotgan tadbirkor Muqaddas Tastemurovaning tikuvchilik sexida, Samanbay mahallasida yangi tashkil etilgan avtota'mirlash ustaxonasi hamda Bayterek mahallasida yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan tadbirkor Bibixatsha Allambergenovaning faoliyati bilan tanishdi.

Tadbirkorlar va ishchi-xodimlar bilan muloqotlar davomida ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan amaliy fikr almashildi.

Baxitbay ALDAMURATOV, deputat:



– Prezidentimiz ta'kidlaganidek, islohotlar samarasi hisobotlarda emas, avvalo, odamlar hayotida, mahallalardagi o'zgarishlarda namoyon bo'lishi kerak. Shuning uchun biz, deputatlar xalq orasida

bo'lib, xonadonma-xonadon yurib, mana shu siyosatning amalida qanchalik aks etayotgani bilan tanishyapmiz, odamlarning ehtiyoji va takliflarini eshitaymiz. Har bir murojaat ortida inson taqdiri turganini unutmasdan, ularga yechim topish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va mahallalardagi o'zgarishlarni yanada kuchaytirishga munosib hissa qo'shishni maqsad qilganmiz.

Mahallada ishbilarmonlar ko'payadi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Noiba Inoyatova Qarshi tumanidagi "Yertepa" mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, faollar va aholi bilan ochiq muloqot qildi.

Uchrashuvda mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, odamlarni qiyab kelayotgan dolzarb masalalar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish, obodonlashtirish ishleri hamda hududning istiqboldagi rivojlanish rejalarini yuzasidan fikr almashildi. Shuningdek, ehtiyojmand oilalarni kash-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va daromadlarini ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Mahalla bo'yab yurish asnosida deputat xonadon egalari, faollar va "mahalla yetilligi" a'zolarining taklif hamda murojaatlarini tingladi. Ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda Yertepada 3 204 nafar aholi istiqomat qiladi. 595 ta xonadonning aksariyati dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, o'z tomorqasidan samarali daromad olib kelmogda.

Muloqotlarda Prezidentimiz rahbarligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlarida belgilangan ustuvor vazifalar, xususan, mahalla tizimi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati xususida atroflicha fikr yuritildi.

Noiba INOYATOVA, deputat:

– Mahalla – fuqarolarning ovozi eshitiladigan, ularning tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadigan maskan hisoblanadi. Bu yerda har bir oilaning kayfiyati, bandligi va turmush darajasiga e'tibor qaratish orqali islohotlarning



haqiqiy natijasi ta'minlanadi. Shu bois aholining har bir taklif va murojaati biz uchun muhim. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni band qilish, tomorqadan samarali foydalanish, hududlarni obod va ekologik jihatdan sog'lom saqlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridandir. Bu borada mahalla faollari va fuqarolarning tashabbuskorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Murojaatlar yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilandi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari – Nodira Jonibekova, Muhammadjon Valiyev va Sherzod Qulmatov "Dolzarb 40 kunlik" doirasida Sirdaryo viloyatining Guliston shahridagi "Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, aholi bilan yuzma-yuz muloqot qildi.

Xonadonma-xonadon tashkil etilgan o'rganishlar davomida fuqarolarning turmush sharoiti, ularni qiynayotgan ijtimoiy masalalar, elektr va gaz ta'minoti, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, aholi bandligini ta'minlash, oilalar daromadini oshirish bilan bog'liq murojaatlar o'rganildi. Ayrim masalalar mas'ullar ishtirokida joyida hal etilgan bo'lsa, qo'shimcha o'rganish talab qiladigan murojaatlar yuzasidan aniq vazifalar belgilandi.

Muloqotlar davomida Prezidentimiz raisligida yoqilg'i-energetika tarmog'ida kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida belgilangan topshiriqlarning mazmun-mohiyati ham aholiga tushuntirildi. Xususan, elektr va gaz ta'minotidagi mavjud muammolarni mahallalar kesimida chuqur o'rganish, aholi va tadbirkorlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ish tashkil etish, har bir murojaatga manzilli yondashish hamda islohotlar natijasi, avvalo, odamlar hayotida sezilishi lozimligi alohida ta'kidlandi.

Muhammadjon VALIYEV, deputat:

– Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, energetikadagi asosiy muammo mablag'da emas, balki tizim boshqaruvda bo'ldi. Joylarda aholi va tadbirkorlar energetika



tizimiga mas'ul rahbarlar ishidan norozi bo'lgani haqli ravishda tanqid qilindi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bundan buyon suyuqlirilgan gazni tashish, saqlash va tarqatish tizimi xalqaro standartlar asosida ko'rib chiqiladi. Suyultirilgan gazni yetkazib berishga xususiy sektor vakillari ham jalb etiladi. Ijtimoiy reestrdagi oilalarga subsidiyalar ajratiladi. Biz, deputatlar bu boradagi tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirib, mazkur yo'nalishdagi mas'uliyatimizni yanada kuchaytiramiz.

Inson qadri ustuvor

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Gulnoraxon Abduravonova hududlardagi uchrashuvlarini Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi "Serquyosh" mahalla fuqarolar yig'ini, Yangiobod ko'chasida istiqomat qiluvchi II guruh nogironligi bo'lgan G. Ahmedovaning murojaatini joyiga chiqqan holda o'rganishdan boshladi.

Muloqot chog'ida fuqaroning 2020-yildan buyon buyrak usti bezi kasalligi tashxisi bilan muntazam davolanib kelayotgani, shuningdek, nogironlik holatini muddatsiz belgilash masalasida amaliy yordamga muhtojligi ma'lum bo'ldi.

Bu masala Baliqchi tumani tibbiyot birlashmasi mas'ullari ishtirokida joyida muhokama qililib, fuqaroning tibbiy hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish, zarur tibbiy ko'riklardan o'tkazish, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza jarayonlarini tashkil etish, dispanser ro'yxatiga kiritish hamda tuman tibbiyot birlashmasi shifoxonasiga bepul davolanishga joylashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, mahallalardagi uchrashuvlarda Prezidentimiz raisligida yoqilg'i-energetika tarmog'ida kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida Andijon viloyati uchun belgilangan vazifalarning

mazmun-mohiyatiga ham alohida to'xtalib o'tildi. Xususan, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, suyuqlirilgan gaz ta'minotini yanada takomillashtirish, ushbu jarayonga xususiy sektorni keng jalb etish hamda bu borada Andijon tajribasini yaratish bo'yicha belgilangan vazifalarning ahamiyati qayd etildi.

Gulnoraxon ABDURAVONOVA, deputat:

– Davlatimiz rahbari yig'ilishda aytganidek, Andijon viloyatining ayrim tumanlarida elektr-energetika tarmog'idagi yo'qotishlar 25 foizdan oshib ketgan. Bundan tashqari, suyuqlirilgan gazni o'z vaqtida yetkazish muammosi to'liq hal etilmagan ham to'g'ri tanqid qilindi. Prezidentimiz suyuqlirilgan gaz yetkazib berishga xususiy sektorni jalb etish tajribasini Andijon viloyatining boshlash tashabbusini ilgari surdi. Qolaversa, ijtimoiy reestrga kirgan oilalarga suyuqlirilgan gaz uchun subsidiya berilishi bo'yicha Andijon tajribasi yaratilishi saylovchilarimizni judayam quvontiriyapti.



Aholi takliflari tinglandi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Anvarjon Nurmatovning Izboskan tumanida o'tkazgan o'rganishlari samarali bo'ldi.

Deputat mahallalardagi uchrashuvlarda Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz bo'yab o'tkazilayotgan "Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi" doirasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar haqida so'z yuritdi. Mahallalarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, nuroniylar, ehtiyojmand oilalar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar holidan xabar olish xalqimizga xos bag'rikenglik va mehr-oqibat an'analarning yorqin ifodasi ekan ta'kidlandi.

Xalq vakili "Markaz" mahalla fuqarolar yig'inidagi Poytug' gaz to'ldirish korxonasi faoliyati bilan tanishib, suyuqlirilgan gaz ta'minotini yaxshilash, mazkur sohada xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddilar bilan fikr almashdi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan energetika sohasiga oid belgilangan vazifalarning joylardagi ijrosiga alohida e'tibor qaratildi.

Deputatning hududdagi o'rganishlari ijtimoiy soha obyektlarini ham qamrab oldi. Umumta'lim maktabida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik, moddiy-texnik baza va darsliklar bilan ta'minlanganlik holati ko'zdan kechirildi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda Oilaviy shifokor punktida esa bolalar uchun yaratilgan sharoitlar, tibbiy xizmat sifati, dori-darmon ta'minoti va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi o'rganildi.

Kuyganyor mahallasida "mahalla yetilligi" faoliyati tahlil qilinib, xonadonma-xonadon yurish orqali fuqarolarning murojaat va takliflari o'rganildi. Aholi bilan muloqotlarda mahallalarni rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash yuzasidan takliflar tinglandi.

Anvarjon NURMATOV, deputat:



– Uchrashuvlar davomida Qonunchilik palatasining joriy yil birinchi yarim yillikdagi faoliyati, xususan, qonun ijodkorligi, parlament nazorati va xalqaro hamkorlik yo'nalishlarida amalga oshirilgan ishlar haqida ham saylovchilarga atroflicha ma'lumot berdik. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilinayotgani, aholi farovonligini yuksaltirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda davlat boshqaruvini takomillashtirishga xizmat qiluvchi qonunchilik tashabbuslari haqida ham so'zlab berdik. Davlatimiz rahbari tomonidan yil yakuniga qadar belgilangan vazifalar, energetika sohasi islohotlari, "mahalla yetilligi" ishini yanada jonlantirish masalalari esa muloqotlarimiz markazida bo'ldi.

"Xalq so'zi".



UMUMMILLIY BIRDAMLIK — ENG KATTA BOYLIK



Konferensiyada Xalqlar do'stligi kuni mamlakatimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va hamjihatlik kabi yuksak qadriyatlarini ulug'laydigan qutlug' ayyom ekan ta'kidlandi.

– Bugun O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari tinch-totuv hayot kechirmogda, – dedi O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi raisi Qahramon Sariyev. – Ular uchun o'z tili, madaniyati, milliy qadriyat va an'analarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishga barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Bu Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan izchil davlat siyosatining amaliy natijasidir. Tadbirda mamlakatimizda tinchlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha mustahkam huquqiy va institutsional asoslar yaratilgani qayd etildi. Xususan, bugun ushbu sohani tartibga soluvchi qirg'dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani, Konstitutsiyada "O'zbekiston xalqi" tushunchasiga barcha millat va elat vakillarini birlashtiruvchi huquqiy ta'rif berilgani fuqarolik birlamligining muhim huquqiy kafolati sifatida baholandi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduravonov konferensiyada ishtirokchilarini qutlar ekan, mazkur xalqaro anjumanning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ezgu g'oyalari mazmun-mohiyatini xalqaro jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

– Ushbu xalqaro konferensiyani millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va fuqarolik birlamligini mustahkamlashga bag'ishlangani dolzarb ahamiyatga ega, – dedi u. – Zero, bu qadriyatlar har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

Anjumanda bildirilgan fikr va takliflar jamiyatda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, xalq diplomatiyasini rivojlantirish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni kengaytirish hamda fuqarolik birlamligini yuksaltirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Mazkur xalqaro konferensiyada Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va umummilliy birlamlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining mazmun-mohiyatini ilmiy va amaliy jihatdan muhokama qilish uchun muhim muloqot maydoniga aylandi.

– Anjumanda bildirilgan fikr va takliflar jamiyatda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, xalq diplomatiyasini rivojlantirish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni kengaytirish hamda O'zbekistonning boy sivilizatsion merosi va tinchlikparvar siyosati haqidagi xalqaro tasavvurlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

"Xalq so'zi".

AFG'ONISTONLIK O'QITUVCHILAR YURTIMIZDA MALAKA OSHIRADI

Toshkent davlat agrar universiteti rektori, professor Narzullo Oblomurov boshchiligidagi delegatsiyaning Afg'onistonga xizmat safari doirasida ushbu mamlakat Oliy ta'lim vazirligi hamda Kobul universiteti rahbariyati bilan qator uchrashuvlar o'tkazildi.

Ta'lim

Muzokaralarda agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish, seleksiya va urug'chilik yo'nalishlarida qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish masalalari ko'rib chiqildi.

Tomonlar Afg'oniston universitetlari



professor-o'qituvchilari uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkillashtirish, masofaviy ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish, qurg'oqchil hududlar uchun mos qishloq xo'jaligi ekinlari bo'yicha qo'shma tadqiqotlarni amalga oshirish hamda afg'on fermerlari uchun o'quv dasturlarini joriy etish masalalarini muhokama qildi.

Uchrashuv yakunida Toshkent davlat agrar universiteti hamda Afg'oniston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, akademik almashinuv va agrar sohadagi innovatsion loyihalar bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan kelishuvlarga erishildi.

"Xalq so'zi".

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI PLATFORMA ISHGA TUSHIRILDI

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi "ai.soliq.uz" – sun'iy intellekt asosidagi yagona raqamli platformasini ishga tushirdi. Bu tadbirkorlar, hisobchilar, barcha soliq to'lovchilarga qo'shimcha qulaylik yaratadi.

Yangilik

– Soliq to'lovchi bir necha soniya ichida o'z tashkiloti faoliyatini intellektual tahlil qilishi, elektron hisobvara (faktura) larning yuqori xavf ("qizil") toifasiga tushish sabablarini aniqlashi, soliq reytingi, amaldagi imtiyozlar, hisobotlar hamda soliq ma'murchiligiga oid boshqa masalalar yuzasidan tushuntirishlarni olishi mumkin, – deydi Soliq qo'mitasining AKT departamenti direktori Farrux Ahmedjonov. – Barcha xizmatlar muloqot

(chat) shaklida ishlaydi. Shuningdek, platformadagi "Al Korxona" xizmati soliq bilan bog'liq barcha o'zgarishlarni tahlil qiladi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha korxona rahbariga amaliy tavsiyalar beradi. Bu tadbirkor uchun soliq organiga murojaat qilmasdan turib, o'z korxonasining soliq holatini mustaqil tahlil etish imkoniyati paydo bo'ldi, deganidir.

Yana bir xizmat turi – "Al Imtiyoz" soliq to'lovchini imtiyozlar va ularni qo'llash mexanizmlaridan xabardor qiladi. Mazkur yo'nalishdagi ilgari yuborilgan arizalar

rad etilgan bo'lsa, buning sabablarini tushuntirib beradi.

Farrux Ahmedjonov "Al Hisobot" xizmatining qulayligiga ham izoh berdi. Undan foydalanish asnosida soliq to'lovchi hisobotlarini sun'iy intellekt asosida tahlil qiladi, davri va muddatlarini ko'rsatib, kechiktirilgan yoki aniqlashtirishi zarur bo'lgan hisobotlarni oydinlashtiradi hamda ehtimoliy xatolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar oladi.

Ayni paytda qo'mita mutaxassislari tomonidan yana ikkita – "Al Murojaatlar" va "Al Yordamchi" intellektual xizmatlar yaratilmoqda, ular ham tez orada keng jamoatchilikka taqdim etiladi.

Abdunabi ALIQULOV ("Xalq so'zi").

Nukus shahridagi issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish loyihasi doirasida soatiga 34,4 gigakaloriya issiqlik va 21,5 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega zamonaviy majmua barpo etiladi.

YANGI HAYOT VA YORUG' KELAJAK RAMZI

Nurafshon Yangi O'zbekiston taraqqiyotining qudratli tayanchlaridan biriga aylanmoqda



Mahallada duv-duv gap

Ma'lumki, Toshkent viloyati tashkil topdigan beri o'z ma'muriy markaziga ega bo'lmagan. Hudud boshqaruvi Toshkent shahrida faoliyat yuritib, viloyatning real hayotidan uzilib qolgan. Hatto viloyatda nufuzli anjuman va davlat tadbirlarini o'tkazish uchun ham shart-sharoit yo'q edi. Bu holat nafaqat boshqaruv tizimi samaradorligini pasaytirdi, balki hududning iqtisodiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga ham to'sqinlik qildi. Shu ma'noda, Toshkent viloyati uchun zamonaviy ma'muriy markazni barpo etish qarori viloyat taraqqiyotiga yangi sur'at bag'ishlaydigan strategik voqeik bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 15-dekabr kuni xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining sessiyasida ishtirok etib, O'ta Chirchiq tumanining ma'muriy markazi bo'lgan To'ytepa shahri viloyatning ma'muriy markaziga aylantirilishini ma'lum qilganida ko'pchilik taraddudlanib qolgani ham rost.

Ikki-uch yildan so'ng To'ytepa to'liq yangi ko'rinish kasb etadi: bu yerda yangi uylar paydo bo'ladi. Toshkentdan bu shaharga tezyurav avtomagistral quriladi, – deya kelgusi rejalarni katta ishonch bilan ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari.

O'sha vaqtda shaharda 29 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan bo'lsa, 2026-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlaridan keyingi ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda Nurafshon shahrining nufusi qariyb 60 ming nafarni tashkil etgan. Buning zahiriga nazar solinsa, aholining tabiiy o'sishi bilan birga, boshqa hududlardan odamlarning muqim yashash uchun ko'chib kelayotgani ham yaqqol ayon bo'ladi. Abdulla Qahhorning nafasi tekkan va Shuhrat Abbosov rejissyorligida kinotasmalarga muhrlangan "Mahallada duv-duv gap" filmi debochasiidagi monolog Nurafshon shahrining bugungi hayotidan olib yozilgandek, go'yo:

"Taajjub, ko'z o'ngingda bo'lib turgan narsalarni ko'p ham payqamaysan, kishi. Vaqti kelib payqaganingda ham, xuddi azaldan bordek tuyuladi. Esingizda bormi-yo'qmi, bilmadim, mana shu siz ko'rib turgan joylar egri-bugri tor ko'chalar, qaldirg'och uyasi singari devorlar, pastu baland katalak uylardan iborat edi. Bunaqa mahallalar hali ham bitta-yarimta topilib qoladi. Lekin borlari ham mana shu azamat qurilishlar oldida bamisoli daryo ustida qalqib yurgan xasdek hayotdan cheylanmoqda. Qorong'i ko'chalar nurga to'lib, jinko'chalar yo'qolib, sayrgohlar, kishini o'ziga tortadigan xiyobonlar, gulzorlar, hashamatli, ko'p qavatli so'lim binolar qad ko'tarmogda. Xullas, shahrimizning qayeriga bormang, hammaning og'zida shu, har bir mahallada duv-duv gap..."

"Nur taratuvchi", "ziyo ulashuvchi" shahar

Tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, Toshkent viloyati zaminida qadimiy illoq davlatining savdo va madaniy markazi – Nukent qullab-yashnagan. Keyinchalik buyuk temuriylar davrida aynan shu hududda Shohruhiya shahri qayta bunyod bo'lgan. Bugungi kunga kelib, viloyat aqli buyuk temuriylar va bunyodkor xalq qudrati jo'sh urgan davrni qayta yashamoqda go'yo. Yangi O'zbekistonning shaharsozlik sohasidagi eng ilg'or g'oyalari mujassam bo'lgan mutlaqo yangi – Nurafshon shahrining barpo etilayotgani bu fikrni tasdiqlaydi. Toshkent – Qo'qon avtoyo'li yonida, Toshkent shahridan 25 km. janubda joylashgan shahar endilikda sanoat, ilm-fan va madaniyat, ta'lim va turizm chorrahasiga aylanmoqda.

Shaharga "Nurafshon", ya'ni "nur taratuvchi", "ziyo ulashuvchi" degan nom bejiz tanlanmagan. Asrlar davomida aynan shu zaminidan taralgan ilm-ma'rifat ziyosi insoniyat tafakkurini yoritib, jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Qadim zamonlarda bu zamin Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmoqlari bilan bog'langan, turli xalqlar, madaniyatlar va tamaddunlar tutashgan chorraha bo'lgan. Bu yerda savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik rivojlangan, insonlarning bunyodkorlik salohiyati avlodlarning avlodga o'tib kelgan. Yaratganing nazari tushgan vohada sohibqiron bobomiz Amir Temur, ulug' ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning qutlug' izlari qolgan. Bu yurtda azaldan ma'rifat bog'ini yashnatgan ulug' bog'bonlar – Shayx Umar Bog'istoniy, Zangi ota, Xoja Ahror Valiy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokatiy kabi aziz avliyolar va allomalar nafasi hamon yashab kelmogda. Shu ma'noda, Nurafshon nomi ham ajdodlarimizning ma'naviy merosi va Yangi O'zbekistonning yaratuvchanlik g'oyalarni o'zida mujassam etgan timsol sifatida jaranglaydi.

Nurafshon o'zida Yangi O'zbekistonning kelajak modeli, taraqqiyot falsafasi, inson qadri va bunyodkorlik g'oyalarni ifoda etadi. Bu nom, shuningdek, xalqimizning

ixtisoslashtirilgan "Cyber University" davlat universiteti faoliyati yo'lga qo'yilganidan ham mana shu tarixiy jarayonlarning nechog'li ahamiyatli ekanini his qilish mumkin.

– "O'zbekiston – 2030" strategiyasida yurtimizni mintaqaviy IT-xabga aylantirish ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilangan, – deydi "Cyber University" davlat universiteti axborot-resurs markazi mudiri Vasil Dehqonboyeva. – Buning uchun davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, zamonaviy aloqa infratuzilmasini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar

oqilona qarordir. Yaqinda tamal toshi qo'yilgan Kelajak texnologiyalari markazi esa Nurafshon shahrini kelajak texnologiyalarining ma'muriy poytaxtiga aylantirsa, ajab emas. Zero, bugun global iqtisodiyotning o'zagi va insonlar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan hamda buyuk ajdodimiz Muhammad al-Xorazmiy asos solgan algoritmlarni yuksak malaka bilan o'zlashtirgan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda bu markaz muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy maydoni 36 gektar bo'lgan markaz qurilishiga qariyb 500 million AQSh dollari miqdorida investitsiya



Nurafshon o'zida Yangi O'zbekistonning kelajak modeli, taraqqiyot falsafasi, inson qadri va bunyodkorlik g'oyalarni ifoda etadi.

Bu nom, shuningdek, xalqimizning yorug' kelajakka qat'iy ishonchining, yangi hayot tarzining ramzi ham. Agar Samarqand ona diyorimizning buyuk tarixi va bebaho ma'naviy merosining timsoli bo'lsa, Nurafshon Yangi O'zbekistonning taraqqiyot g'oyasi va zamonaviy tafakkurining yorqin ifodasidir. Shu jihatdan, Nurafshonga tutash hududda Toshkent – Samarqand yo'nalishida pullik muqobil avtomobil yo'li qurilishi boshlanganida ham ramziy ma'no mujassam. Samarqand buyuk xalqimizning kim bo'lganini anglatsa, Nurafshon qanday davlat va qanday jamiyat barpo qilayotganini, qanday kelajak sari intilayotganini namoyon etadi.



yorug' kelajakka qat'iy ishonchining, yangi hayot tarzining ramzi ham. Agar Samarqand ona diyorimizning buyuk tarixi va bebaho ma'naviy merosining timsoli bo'lsa, Nurafshon Yangi O'zbekistonning taraqqiyot g'oyasi va zamonaviy tafakkurining yorqin ifodasidir. Shu jihatdan, Nurafshonga tutash hududda Toshkent – Samarqand yo'nalishida pullik muqobil avtomobil yo'li qurilishi boshlanganida ham ramziy ma'no mujassam. Samarqand buyuk xalqimizning kim bo'lganini anglatsa, Nurafshon qanday davlat va qanday jamiyat barpo qilayotganini, qanday kelajak sari intilayotganini namoyon etadi.

Nurafshon XXI asr talablariga mos, xavfsiz, qulay va yuksak hayot sifatini ta'minlaydigan zamonaviy shahar sifatida shakllanmoqda. U "aqli shahar" konsepsiyasi asosida tiklanayotgan nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyoda ham ilk shahardir. Bu yerda raqamli boshqaruv, madaniy maskanlar, intellektual transport, energoetjamlar texnologiyalar va ekologik infratuzilma yagona tizim sifatida joriy etilmogda.

Raqamlashtirish va yuqori texnologiyalar markazi

"Aqli shahar" o'z-o'zidan barpo bo'lib qolmaydi. Nurafshon shahrida axborot xavfsizligi va raqamli texnologiyalarga



tayyorlash hamda innovatsion ekotizimni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmogda. Keyingi yillarda yaratilgan quyaliklar samarasi innovatsion ekotizim bo'ladi. Markaz uchun Nurafshon shahrining tanlangani ham bejiz emas. Bu yerdagi "Cyber University"da kibernetika ixtisoslashtirilgan axborot himoyasi sohalarida qariyb 1 ming nafar mutaxassis tayyorlanmoqda. Endi universitet atrofiga butun mamlakat uchun namuna bo'ladigan yaxlit innovatsion klaster shakllantiriladi. Markazda esa kibernetika, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va kriptografiya yo'nalishlarida oltita zamonaviy laboratoriya tashkil etiladi.

jalb qilinadi. U ta'lim, ilmiy tadqiqot, texnologik sinov va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtiradigan yagona innovatsion ekotizim bo'ladi. Markaz uchun Nurafshon shahrining tanlangani ham bejiz emas. Bu yerdagi "Cyber University"da kibernetika ixtisoslashtirilgan axborot himoyasi sohalarida qariyb 1 ming nafar mutaxassis tayyorlanmoqda. Endi universitet atrofiga butun mamlakat uchun namuna bo'ladigan yaxlit innovatsion klaster shakllantiriladi. Markazda esa kibernetika, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va kriptografiya yo'nalishlarida oltita zamonaviy laboratoriya tashkil etiladi.



Markazga yetakchi global kompaniyalar, universitetlar va olimlarni jalb qilish, talabalar va xodimlar uchun zamonaviy ijtimoiy, madaniy va maishiy infratuzilma yaratish ko'zda tutilgan.

2026-yilda Toshkent viloyatining raqamli xizmatlar eksporti ilk bor 50 mln. AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish uchun Nurafshon va Chirchiq shaharlarida zamonaviy IT-park binolari qurilishiga ham kirishildi. Mazkur maskanni Toshkent viloyatining sun'iy intellekt va raqamlashtirish markaziga, yoshlarning bilim, iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqaradigan zamonaviy majmua aylantirish asosiy maqsad qilingan.

Hududning iqtisodiy drayveri

Nurafshon butun Toshkent viloyati taraqqiyotining drayveriga aylanishi lozim. Biroq o'tgan muddat mobaynida xorijiy investitsiya jalb qilinishida sun'iy to'siq yaratilgan, tadbirkorlar va sarmoyadorlar uchun Nurafshon yopiq shaharga aylangan edi. Buning oqibatida minglab odamlar ishlab kelgan "To'ytepa tekstil", Toshkent metall konstruksiyalar zavodi kabi gigant korxonalar bankrot bo'ldi, ularning katta hududlarni egallagan ishlab chiqarish binolari huvullab qolgani ham rost.

Keyingi yillarda O'zbekistonda yaratilgan qulay sarmoyaviy muhit Nurafshon shahrida ham o'z samarasini berdi. "Nurafshon maxsus texnika" korxonasi fikrimiz tasdiq'idir.

– Mamlakatimizda avtomobilsozlik va mashinasozlik tarmoqlarini zamonaviy talablar asosida isloh qilish, sohaning raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmogda, – deydi "Nurafshon maxsus texnika" qo'shma korxonasi rahbari Shuhrat Doniyorov. – Umumiy qiymati 50 mln. AQSh dollari bo'lgan loyiha doirasida 25,8 gektar maydonda tashkil etilgan korxonamizda "KRANTAS" xosnomi ostida maxsus turdagi avtomobillar, harbiy texnika va turli mexanizmlar ishlab chiqarilmogda. 300 nafardan ziyod yuqori malakali mutaxassislar doimiy ish o'rni bilan ta'minlangan. Ishlab chiqarishda foydalanilayotgan uskunaga va texnologiyalar AQSh, Germaniya, Italiya, Shvetsiya, Rossiya, Xitoy hamda Turkiya davlatlaridan keltirilgan. O'tgan davrda ikki yarim ming tonnaga yaqin metall konstruksiya, 300 dan ziyod avtomobil ustqurmaları, 200 dan ortiq shassi va o'nlab traktorlar ishlab chiqarildi. Jumladan, o'tgan yilda 275 mlrd. so'mlik texnika va mexanizmlar buyurtmachilarga yetkazib berildi.

Yoshlar uchun keng imkoniyatlar

"Avval inson, keyin jamiyat va davlat" degan xalqchil tamoyil Yangi O'zbekistondagi islohotlarning bosh mezoniga aylangan. Mana shu tarixiy yangilanishlar jarayonida Nurafshon, avvalo, ilm-fan, ma'naviyat va yoshlar shahri sifatida qaytdan ko'z ochmogda. Gap shundaki, Prezidentimizning tegishli farmonga muvofiq, respublikamizdagi

o'n to'rtta hududiy birlik qatorida Nurafshonga ham "Yoshlar shahri" maqomi berildi. Bu nurafshonlik har bir yosh uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Endilikda shaharda ming o'rinni zamonaviy san'at saroyi, Badiiy akademiyaning viloyat bo'limi, sun'iy intellekt markazi, axborot-resurs kutubxonasi, kasblar markazi va boshqa muhim inshootlarni o'z ichiga olgan zamonaviy "Yoshlar shaharchasi" barpo etilmogda.

"Aqli shahar" tamoyili asosida qurilayotgan Nurafshonda shu bilan birga, viloyat hokimligi, davlat arxivi, zamonaviy tibbiyot klasteri, Toshkent davlat tibbiyot universiteti va Toshkent davlat texnika universitetining viloyat filiallari, ilg'or kasbiy mahorat texnikumi, migratsiya markazi va boshqa ko'plab ma'muriy-ijtimoiy obyektlar qad rostlamogda. Bugungacha esa minglab kvartirali ko'p qavatli uylar, so'lim xiyobonlar, madaniyat va ijtimoiy soha obyektlari foydalanishga topshirildi. Bunyodkorlikning yangi manzilliga aylangan shaharda birgina 2025-yilning o'zida qiymati 1,210 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirildi va bu o'tgan uch yilgi umumiy ko'rsatkich bilan qariyb tengdir.

Ammo Nurafshon faqat beton va shishadan qurilgan manzil bo'lib qolmaydi. Shahar, avvalo, insonga ruhiy orom beradigan, oilalar birga vaqt o'tkazadigan, yoshlar orzu qiladigan maskanga aylanadi. Shu ma'noda, Toshkent viloyatida bahorning tarovati, yozning harorati, kuzning malohatiyu qishning halovatini tuyish mumkinligini qayd etish kerak. Ayniqsa, Bo'stonlik, Parkent, Ohangaron, Angrendagi tog'u adirlar, suv omborlari, turmak'oz buloqlar, dala va bog'lar nafasoti, qadimiy manzilgohlardagi osoriyatqalar, hududiy brendga aylanib borayotgan taomlar, zamonaviy xizmat va maroqli sarguzashtlar hech kimni befarq qoldirmaydi.

"Tashrif qog'ozi"ga aylangan turizm manzillari

Viloyatdagi deyarli barcha turizm manzillarining o'z ziynati va fazilati, boshqacha aytganda, sayohat uchun "tashrif qog'ozlari" bor. Viloyat bo'yab 30 dan ziyod turistik yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Madaniy-ko'ngilochar tadbirlar muntazam tashkil etiladi. "Iloq", "Uzumchilik va vino", "So'qoq taomlari", "Pahlavon Farhod", "Impuls", "Chimyon sadosi" kabi festival va musobaqalarni xorijida ham yaxshi biladi. Buning samarasi o'laroq, so'nggi bir yil ichida viloyatga 1 mln. 532 ming xorijiy va 19 mln. 350 ming nafar mahalliy sayyoh tashrif buyurdi hamda turizm xizmatlari eksporti 438 mln. AQSh dollariga yetdi.

Turli tillarda, rang-barang shevalarda so'zlashayotgan, lekin yagona maqsad bilan yashayotgan Toshkent viloyatining qariyb 4 mln.lik aholisining orzu-intilishlari, bir-biriga mehr-oqibatlariga har qancha havas qilsak, arziydi, – deydi xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi raisi Sayyora Fayziyeva. – Prezidentimiz rahnamoligidagi keyingi yillarda

erishgan har bir yutug'imiz ortida mana shu insonlarning halol mehnati, fidoyiligi va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi mujassam. O'z navbatida, mamlakatimiz rahbarining viloyatimizga e'tibori, g'amxo'rligi bo'lakcha ekani bizga katta kuch bermogda. 2026-yilning o'zida Prezidentimiz Toshkent viloyatiga olti marta tashrif buyurganining o'ziyoq fikrimizni isbotlaydi. Bu tashriflar zamirida yangi ish o'rnlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish, odamlarning turmush sharoitini yanada yaxshilashdek xalqchil siyosat bor.

Haqiqatan ham, Toshkent viloyati mamlakatimiz iqtisodiyotining eng yirik ustunlaridan biri hisoblanadi. Bu viloyat sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham, transport va logistika tarmog'ida ham, ilm-fan va yirik investitsiya sohasida ham katta salohiyatga ega. Toshkent viloyati yurtimizdagi eng yirik iste'mol va xizmatlar bozorini, ya'ni poytaxtimizni har tomondan o'rab turadi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizi aynan poytaxt viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Bugun yalpi hududiy mahsulot hajmining 180 trln. 177 mlrd. so'mga yetib, 6 baravar o'sgani viloyat iqtisodiyoti rivoji jadalligidan dalolat beradi. Eng asosiy mezon – aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 2026-yilning 5,9 mln. so'mdan 54,3 mln. so'mga ko'tarilgani, oxirgi besh yilda jami 16 mlrd. AQSh dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilgani, chet el kapitali ishtirokidagi 2829 ta korxona faoliyat ko'rsatayotgani, eksport hajmi esa 2,8 mlrd. dollarga yetgani oqilona iqtisodiy siyosat samarasidir.

– Shu Navro'zda umrimning to'qson ikkinchi bahoriga peshvoh chiqdim, – deydi "Nuroni" jamg'armasi Nurafshon shahri bo'linmasi rahbari Jo'ra ota Ahmedqulov. – Yetmish yillik mehnat faoliyatim davomida Nurafshondagi Muqimiy nomidagi mahallaga rais ham bo'ldim, To'ytepa shahrida hukim bo'lib ham ishladim. Yo'q, bunday taraqqiyot, bu kabi o'zgarish, mana shunday imkoniyatni ko'rmadim. Qaniydi, shu imkoniyatlar hokim yo rais bo'lib ishlagan vaqtimda bo'lganda edi, deb xayol qilaman. Endilikda, nurafshonlik nuroniyalar rahbarlar va raislar atrofida birlashib, Nurafshonni Yangi O'zbekistonning eng go'zal shahriga aylantirish uchun bor kuch-g'ayratimizni ishg solamiz.

Qurilishga start berilgan Toshkent – Samarqand yangi avtomagistrali, Nurafshonda tamal toshi qo'yilgan Kelajak texnologiyalari markazi va boshqa keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari Toshkent viloyatini Yangi O'zbekiston iqtisodiy va texnologik taraqqiyotining qudratli tayanchiga aylantirish shubhasiz. Nurafshon esa nafaqat Toshkent viloyatining ma'muriy markazi, balki Yangi O'zbekistonning bunyodkorlik ruhi, inson qadri va kelajakka ishonch timsoli sifatida yanada yuksalaveradi.

G'ayrat SHERALIYEV,
Otabek ISROILOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

BU TAKLIF SIZNI QIZIQTIRADIMI?

"O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik" loyihasi Kredit raqami: 7425-UZ

Xizmat tavsifi: "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MCHJ "O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik" loyihasi doirasida Xalqaro jamoatchilik bilan aloqalar kompaniyasini o'tkazish va ommaviy axborot vositalarida

tarqatish bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish uchun malakali konsalting tashkilotlarini qiziqish bildirishga taklif etadi (UZ-DIP-560847-CS-CQS).

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati: 2026-yil 11-avgust, soat 18:00.

Batafsil ma'lumot uchun: udip@it-park.uz, 71-209-11-99 (10-37), 95-165-55-95.

BU TAKLIF SIZNI QIZIQTIRADIMI?

"O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik" loyihasi Kredit raqami: 7425-UZ

Xizmat tavsifi: "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MCHJ "O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik" loyihasi doirasida qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan ITES markazlarida qurilish ishlari davrida ekologik va ijtimoiy

monitoring xizmatlarini ko'rsatish uchun malakali konsalting tashkilotlarini qiziqish bildirishga taklif etadi (UZ-DIP-561411-CS-CQS).

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati: 2026-yil 12-avgust, soat 18:00.

Batafsil ma'lumot uchun: udip@it-park.uz, 71- 209-11-99 (10-37), 95-165-55-95.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mualliga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G'. Bahromov.
Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 02.15 Topshirildi – 02.20

1 2 3 4 5 6